



## MIRMUHSINNING “ME’MOR” ROMANIDA RUHIYAT TASVIRI

**Axmatqulova Dilbar**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek  
tili va adabiyoti universiteti  
magistranti

dilbaraxmadqulova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17498775>

**Annontatsiya:** Mazkur tezisdagi o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Mirmuhsin ijodining o‘ziga xos jihatlari, xususan, “Me‘mor” romanida insonning ijodiy tabiati, ma‘naviy dunyosi va bunyodkorlik ruhi tahlil etiladi. Asarda millat ruhiyati, tarixiy xotira, mehnatga sadoqat va san‘atning ijtimoiy ahamiyati badiiy vositalar orqali ifoda topgan. Yozuvchi me‘mor obrazida insonning yaratuvchanlik mohiyatini, vijdon va mas‘uliyat masalasini falsafiy darajada ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Mirmuhsin, “Me‘mor” romani, o‘zbek nasri, ijodkor shaxsi, bunyodkorlik, ruhiyat, vijdon, millat ruhiyati, falsafiy tafakkur.

O‘zbek adabiyotida inson va ijod masalasi doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa XX asr o‘zbek nasrida inson ruhiyati, imon-e‘tiqodi, mehnat va bunyodkorlikka munosabati asosiy tahlil markaziga aylangan. Shu jihatdan Mirmuhsin ijodi, xususan, uning “Me‘mor” romani o‘zbek adabiyotining falsafiy hamda tarixiy yo‘nalishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mirmuhsin – millat ma‘naviyatini yuksak qadrllovchi yozuvchilardan biridir. Uning ijodida inson mehnati, bunyodkorlik ruhi, san‘at va axloq bir-biriga chambarchas bog‘liq holda yoritiladi. “Me‘mor” romani ham ana shu g‘oyaviy yo‘nalishning davomidir. Yozuvchi bu asar orqali o‘zbek xalqining tarixiy bunyodkorlik an‘analarini, milliy o‘zlik va estetik qarashlarini ifodalashga intilgan.

### Asosiy qism

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda me‘morchilik san‘atining mislsiz rivojlanganini, obidalar va tarixiy yodgorliklarni me‘mor-u muhandislar bilan birga xalq barpo etganini asardagi voqealar rivojida ko‘rishimiz mumkin.

Asardagi nafaqat me‘morchilik san‘ati, balki o‘sha davrdagi shohlar va shahzodalar orasida munosabat, avom xalqning qanchalar qiyin ahvolda ekanligi yorqin misollar bilan tasvirlab berilgan. Shuningdek asarning asosiy qahramonlari – Najmiddin Buxoriy, Badia, Zavrak, Zulfiqor, G‘avvos obrazlari orqali insoniy munosabatlar, adolat mezonlari, Vatan saodati, sevgi-sadoqat, shuningdek, onalik muhabbati ham yorqin uslubda tasvirlangan.





Roman markazida turgan me'mor Najmiddin Buxoriy obrazida faqat bir san'atkor emas, balki o'z xalqining o'tmishini, hoziri va kelajagini qalban his etuvchi, vijdonli, o'z kasbiga sadoqatli inson siymosi yaratilgan. Asar o'zining badiiy-falsafiy yo'nalishi bilan o'zbek adabiyotida inson ruhiyatini, ijod va ma'suliyatni chuqur tahlil qilgan eng yirik asarlardan biri hisoblanadi.

Romanda me'morning qizi – Badiya obrazida irodali va mard ayol hmda iymonli, vafoli yor, eng yuksak onalik muhabbatini kuzatamiz. Badiada kuchli o'zbek ayollariga xos harakterni.

“Me'mor” romanining asosiy g'oyasi – insonning yaratuvchilik kuchini, mehnat va ma'naviyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritish bilan birga, o'sha davrdagi xalqning ahvolini, podshohlar o'rtasidagi taxt talashishlar, jabr-zulmlarning achinarli holatini ham tasvirlab berishdir. Bundan tashqari, Mirmuhsin me'mor obrazini yaratish orqali, qanday davr bo'lishidan qat'iy nazar, insonni bunyodkorlik ruhi bilan yashashga, yaratilgan go'zallikda xalq ruhini ko'ra bilishga chorlaydi.

Asarda me'mor shaxsining ichki dunyosi, ijod jarayonidagi izlanishlari, orzulari, kasbiga sadoqati mahorat bilan tasvirlangan. Bu jihatdan roman psixologik tahlil elementlariga boy. Yozuvchi me'morchilikni faqat moddiy bunyodkorlik emas, balki ma'naviy qurilish – inson ruhini poklash jarayoni sifatida talqin etadi.

Mirmuhsin romanda ramziy obrazlar, ichki monologlar va falsafiy mushohadalar orqali millat ruhiyatini ochib beradi. Me'mor uchun bino – bu toshdan qurilgan devor emas, balki xalq ruhining abadiyligini ifodalovchi timsoldir. Shu bois asarda har bir g'oya, har bir detal chuqur falsafiy ma'no kasb etadi.

Yozuvchi ijodkor shaxsining hayotdagi o'rni haqida o'ziga xos fikrlar bildiradi. Uning tasvirlashicha, ijodkor - bu faqat san'at asarini yaratadigan emas, balki jamiyatni ruhiy jihatdan yuksaltiradigan shaxsdir. Najmiddin Buxoriy obrazida Mirmuhsin ana shu idealni mujassamlashtiradi.

### **Xulosa**

Mirmuhsinning “Me'mor” romani o'zbek adabiyotida inson va ijod masalalarini falsafiy darajada yoritgan muhim asarlardan biridir. Unda yozuvchi me'mor obrazida xalqning tarixiy xotirasini, bunyodkorlik ruhini, mehnat va vijdon birligini aks ettiradi. Asar o'quvchini nafaqat san'atga, balki insoniylikka, iymon va mas'uliyatga da'vat etadi.

Mirmuhsinning badiiy tahlili, til, uslubi va falsafiy mushohadalari “Me'mor” romanini zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos ruhiy-falsafiy asar





darajasiga ko'targan. Shu bois ushbu roman adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham, ma'naviy tarbiya jihatidan ham katta ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.Quronov. "Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari", T. "Navoiy universiteti", 2018.
2. A.Ulug'ov "Adabiyotshunoslik nazariyasi", T. "G'afur G'ulom", 2018.
3. A.Ulug'ov "Arastu anglatgan adabiyot", T. "Muharrir" nashriyoti, 2022.
4. Abu Nasr Forobiy. She'r san'ati, T. "Adabiyot va san'at", 1979.
5. Aristotel. Poetika. T. "Adabiyot va san'at", 1980.
6. Mirmuhsin. "Me'mor", T. "Oltin qalam", 2023. – 416 b.

